



## SEREBRAL FALAJLI BOLALARNING NUTQINI ART TERAPIYASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA KORREKSION ISH MAZMUNI

**Abidova Nilufar Zakirovna,**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc).

[nilufar1976@list.ru](mailto:nilufar1976@list.ru) +998 99 823 11 90

**Yodgorova Asolat Shaxob qizi,**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti logopediya yo'nalishi

2-kurs magistranti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1561>

### MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-A

**Maqola raqami:** 6

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Serebral falajlik, harakat-tayanch apparati, dastur, nutq, dizartriya, tamoyil, individuallik, maktabgacha yoshdagi bolalar, izchillilik, kompleks yondashuv, tizimlilik, faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyili

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqola serebral falajli bolalarning nutqini art terapiyasi vositasida rivojlantirishda korreksion ish mazmuni tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada serebral falajligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish tamoyillari, maktabgacha yoshdagi serebral falajligi bo'lgan bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda nutqdagi kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga qaratilgan dastur yoritib berilgan. Ushbu tadqiqotda art-terapiya vositalarining serebral falajli bolalar nutqini rivojlantirishdagi imkoniyatlari amaliy jihatdan asoslab berildi. Art-terapiya mashg'ulotlari bolalarda nafaqat nutqiy faollikni oshirish, balki emotsional barqarorlikni ta'minlash, o'zini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishda muhim rol o'ynashi aniqlandi. Shuningdek, korreksion ish jarayonida qo'llanilgan metodik yondashuvlar bolalarning artikulyatsion apparat faoliyatini faollashtirish, tovush talaffuzini aniqlashtirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida dizartriya bolalar bilan ishlashda art-terapiya elementlarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 15 april 2026

**Approved:** 17 april 2026

**Volume:** 18-A

**Paper number:** 6

### KEYWORDS

cerebral palsy, musculoskeletal system, program, speech, dysarthria, principle, individuality, preschool children, consistency, comprehensive approach, systematicity, activity-oriented principle

### ANNOTATION

This article is devoted to the study of the content of corrective work aimed at developing the speech of children with cerebral palsy through art therapy. The article describes the principles of organizing corrective work with children with cerebral palsy and presents a program aimed at developing the abilities of preschool children with cerebral palsy and gradually eliminating speech deficiencies. This study provides a practical justification for the potential of art therapy tools in developing speech in children with cerebral palsy. It was found that art therapy classes play an important role not only in increasing speech activity in children, but also in ensuring emotional stability, developing self-expression skills, and facilitating the process of social adaptation. Also, the methodological approaches used in the correctional work process served to activate the activity of the articulatory apparatus of children, clarify sound pronunciation, and form communicative competence. The results of the study indicate the need for the widespread introduction of art therapy elements in working with children with dysarthria in the preschool education system.

**Kirish.** Nutq tufayli odamlar fikrlash mexanizmini rivojlantiradi. Inson nutq orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'zlashtirishi kerak bo'lgan eng muhim ko'nikma o'z nutqini rivojlantirishdir. Bu bolalarni ta'lim sohasida tarbiyalash va o'qitishning umumiy asosi sifatida qaraladi. Nutq rivojlanish jarayonidagi muloqotning zaruriy qismidir. Nutq kamchiliklari bolaning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Og'ir nutq kamchiliklari bolaning yuqori aqliy funksiyalariga, jumladan bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi. Bolalar serebral falaj kasalligi hali yetilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Serebral falajligi bo'lgan bolalar nutqini art terapiya vositasida rivojlantirishda korreksion ish tamoyillarni ishlab chiqish muhim asos hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Serebral falajli bolalarda nutq buzilishlari va ularni korreksiyalash masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda bir qator olimlar tomonidan muhim nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

E.N. Vinariskaya va A.M. Pulatov serebral falajda nutq buzilishlarining klinik ko'rinishlari hamda ularning markaziy nerv tizimi jarohatlari bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilgan bo'lib, dizartriyaning topik-dagnostik ahmiyatini yoritib bergan [1, 45-bet].

L.S. Volkova, S.N. Shaxovskaya tomonidan yaratilgan logopediya bo'yicha ilmiy adabiyotlarda nutq nuqsonlarining tasnifi, korreksion ish metodlari va nutqni rivojlantirish tamoyillari tizimli ravishda bayon etilgan [3, 112-bet].

G.V. Chirkina tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni tekshirish metodikasi va fonematik eshituvni rivojlantirish usullari ilmiy asosda yoritilgan bo'lib, bu usullar dizartriya bolalar bilan ishlashda ham muhim ahamiyatga ega [6, 78-bet].

B.P. Puzanova korreksion pedagogika doirasida nutq buzilishlarini bartaraf etishning kompleks yondashuvini ishlab chiqib, logopedik

jarayonda psixologik va pedagogik omillarning birligini asoslab bergan [7, 134-bet].

O. V. Eroshova art-terapiyani sog'lomlashtiruvchi pedagogik texnologiya sifatida ko'rib chiqib, uning bolalar emotsional holatini yaxshilash va kommunikativ faolligini oshirishdagi rolini alohida ta'kidlagan [5, 21-bet].

Shuningdek, Kondratyeva S.Yu. tomonidan o'yin faoliyati asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv va nutqiy tasavvurlarni rivojlantirish masalalari o'rganilib, bu yondashuv art-terapiya elementlari bilan uyg'un holda qo'llash imkonini beradi [5, 38-bet].

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalar miya falajligi Gippokratning asarlarida tasvirlangan. Biroq bu kasallikning ochilishi Villiam Littlega tegishli bo'lsa-da tibbiy adabiyotlarda birinchi eslatmalar Denis, Billard va Kruevylyer shifokorlarining ismlariga ishora qiladi. O'sha paytlarda kasallik hali miya falaji deb nomlanmagan edi. Xalqaro bir guruh olimlar "miya falaji" atamasini tasdiqladilar. Mushakdagi giperkinezlar bolaning nafaqat umumiy, balki nutqiy motorikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq apparatining kam harakatlanishi (til, lab, jag'un paychalari, kichik til harakati buziladi) nutqning fonetik tomondan buzilishiga, ya'ni tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga olib keladi. Mushaklardagi giperkinezlar dizartriya yoki anartriya kabi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Diafragma, qovurg'a orasidagi mushaklar giperkinezi nutqiy nafas olishni, un paychalarining tebranishi, nutq maromining buzilishiga olib keladi. Nisbatan ko'proq uchraydigan dizartriyaning psevdobulbar shaklida artikulyatsion tonus baland bo'ladi. Lab, til, kichik til, pastki jag'un paychalari harakatlanishi buziladi va natijada tovushlar talaffuzi, ovoz, nutq sur'ati nuqsonlari kuzatiladi. So'lak bezlari atrofidagi mushaklar qisqarmaganligi tufayli bola so'laki oqib turadi. Bunday bola yaxshi chaynay olmaydi, yuta olmaydi. Dizartrik bolaning nutqi noaniq, chuchmal, xirillagan, monoton bo'ladi. [5]

Birinchi marotaba dizartriya klinik ko'rinishlarini A.Oppengeym, G. Pezitz dizartriyaning yengil formasi bu nutq nuqsoni ekani, u o'zining

patogenezlari bilan farq qilishini, nutq patologiyasining eng dastlabki tasnifida artikulyatsiyani har ganding buzilishi ajratilib "dizartriya" termini bilan berilgan edi. Gowers nutqning shu kabi dizartrik buzilishini serebral va bulbar shakllarga ajratdi. M.S Margulis dizartriya miyaning turli zonalarida jarohatlarni aniqlash mumkin ekanligi haqida fikr bildirgan. fokal miya lezyonlari kontekstida o'rganishgan. M.S.Margulis dizartriya motor afaziyasidan birinchi bo'lib aniq ajratib o'rganadi va bulbar hamda serebral shakllarini ajratib berdi. [6] I.I.Panchenko ishlarida serebral falaj bilan kasallangan bolalarda dizartriyaning patogenezini, o'ziga xos klinik belgilarining namoyon bo'lishi, shu bilan birga patogenetik tomondan asoslangan logopedik ish metodikasini yaratdi. [6]

**Metodologiya.** Tadqiqotda serebral falajli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini art-terapiya vositasida rivojlantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy (ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish) va empirik (kuzatuv, suhbat, pedagogik eksperiment, diagnostik topshiriqlar) metodlardan foydalanildi. Korreksion ishlar individual va guruh shaklida tashkil etilib, art-terapiya elementlari (rasm chizish, bo'yash, loy bilan ishlash) logopedik mashg'ulotlar bilan integratsiya qilindi. Bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi artikulyatsion apparat holati, tovush talaffuzi, nutqiy nafas va kommunikativ faollik mezonlari asosida baholandi. Tadqiqot davomida tizimlilik, izchillik, kompleks yondashuv va individual yondashuv tamoyillariga amal qilindi. Natijalar pedagogik kuzatuv va taqqoslash tahlili asosida umumlashtirildi.

**Natijalar.** Tadqiqot jarayonida serebral falajli bolalar bilan art-terapiya vositasida olib borilgan korreksion-logopedik ishlar muntazam kuzatuv, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik tahlillar asosida baholandi. Mashg'ulotlar davomida bolalarning nutqiy rivojlanish dinamikasi, emotsional holati hamda kommunikativ faolligida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. Art-terapiya elementlarining logopedik jarayonga integratsiya qilinishi bolalarning qiziqishini oshirdi va nutqiy faoliyatda ishtirok etish motivatsiyasini kuchaytirdi. Shu asosda korreksion ishlarining samaradorligi bir qator ko'rsatkichlar orqali o'z ifodasini topdi.

Dizartriya quyidagi belgilarga ega:

- Nutqiy artikulyatsiya motorikasi va nutqiy nafas bilan bog'liq bo'lgan tovushlar talaffuzi;

- Ovoz bilan bog'liq muammolar;

- Ham unli, ham undosh tovushlarda kamchiliklar kuzatiladi;

- Artikulyatsiya praksisining yetarli emasligi;

- Nafas muskulaturasining inervatsiyasining buzilishi natijasida nutqiy nafas buzilishi kelib chiqadi.

Dizartriya nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik tashxislashning maqsadi nutq-motor tizimining zararlanish darajasi yoki shakllanmagan jihatlarini aniqlash asosida uning ta'lim olish imkoniyatlari, bunda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarining mazmuni, usullari, vositalarini belgilashdan iborat.

Nutqning rivojlanishi, xususan, lug'atning boyishida ikkinchi juda muhim omil kattalarning nutqiy faoliyati va ularning bola tomonidan his qilinishida namoyon bo'ladi. Tilni bola kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat vositasi sifatida o'zlashtiradi va D.Brunerning fikricha, ayni vaqtda kognitiv jarayonlar tabiatini aks ettiradi.

Dizartriya nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni samarali bartaraf etishning ratsional yo'llarini tanlash uchun nutqiy nuqson harakteri, uning darajasi va bu kamchiliklar nutqning komponentlariga qanday ta'sir qilishini aniqlash muhim sanaladi.

R.E.Levina birinchilar qatorida nutq nuqsonlarini tahlil qilishning tamoyillarini (rivojlanish tamoyili, tizimli yondashuv, nutqni bolaning boshqa psixik jarayonlar bilan aloqadorlikda o'rganish) ishlab chiqqan bo'lib, ushbu tamoyillar hozirgi kunga qadar ham logopediyada nutq nuqsonlarini tahlil qilishda yetakchi omil bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda har bir bolaning ham ruhan ham jismonan salomatligini ta'minlash har bir mamlakatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jihatdan yurtimizda bolalar salomatligini ta'minlash, xususan oladigan bo'lsak nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni bartaraf etish va bolalarni ijtimoiylashtirish kabi muhim amaliy vazifalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni ijtimoiylashuvini ta'minlash, ular bilan olib boriladigan logopedik-korreksion ishlarni yanada takomillashtirish va zamon talabiga mos bo'lgan yangi o'quv usullarini ishlab chiqish muhim sanaladi.

Dizartriya bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar asosan bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishga qaratiladi. So'nggi yillarda logopedik amaliyotda samarali metodlardan biri sifatida art terapiya vositalaridan keng foydalanilmoqda.

Mazkur metod dizartriya bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bolaning ichki imkoniyatlarini ochib berishga, nutqiy faolligini oshirishga hamda muloqotga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirishga yordam beradi.

Ushbu jarayonning tamoyillari, vazifalari, tashkil etilishi va mazmuni bolalarning shaxsiy imkoniyatlariga, rivojlanish darajasiga va ijtimoiy muhitiga qarab bir-biridan farq qiladi.

Nutq buzilishlarini tashxislash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan korreksion tamoyillarni yorituvchi ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari logopedik jarayonni tashkil etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tamoyillar logopedik faoliyatning ilmiy asoslarini belgilab berib, nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarining mazmuni, shakli va metodlarini aniqlashda muhim metodologik yo'nalish vazifasini bajaradi.

Shuningdek, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari logopedik ta'sir jarayonining tizimlili, izchilligi va maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Ular asosida nutq buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan samarali metod va usullar ishlab chiqiladi hamda ularni logopedik amaliyotga joriy etish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ushbu tamoyillar korreksion jarayonni faqat amaliy tajribaga tayangan holda emas, balki ilmiy jihatdan asoslangan holda tashkil etishga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Diagnostika hamda korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etish tamoyillarini ishlab chiqishning dastlabki nazariy poydevori rivojlanish qonuniyatlari, kompensator imkoniyatlar va zaxira qobiliyatlari, shuningdek, bola taraqqiyotining harakatlantiruvchi omillari haqidagi ilmiy qarashlarga asoslanildi. Bu g'oyalar L.S. Vigotskiy, A. V.Zaporozets, A.N.Leontyev, S.L. Rubinshteyn, D.B.Elkonin va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida ishlab chiqilgan nazariy ta'limotlarga tayanildi.

Maktabgacha ta'lim sharoitida dizartriya bolalar nutqini art-terapiya vositasida rivojlantirish bo'yicha korreksion ishning tamoyillari:

Birinchi tamoyil – individual yondashuv tamoyili: har bir dizartriya bolaning nutq rivojlanish darajasi, artikulyatsion apparatning holati, psixologik xususiyatlari hamda motorik rivojlanishi o'ziga xos bo'ladi. Shu sababli korreksion-pedagogik ish jarayonida har bir bolaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturi va yondashuvlar ishlab chiqiladi. Art-terapiya vositalaridan foydalanishda ham bolaning qiziqishi, ijodiy faolligi va nutqiy imkoniyatlariga mos topshiriqlar tanlanadi.

Ikkinchi tamoyil – tizimlilik va izchillik tamoyili: dizartriya bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Art-terapiya mashg'ulotlari nutqni rivojlantirishning umumiy korreksion tizimi bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Mashg'ulotlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etilib, artikulyatsion harakatlar, nutqiy nafas, tovush talaffuzi va nutqiy faollikni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratiladi.

Uchinchi tamoyil – faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyili: maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida faoliyat muhim o'rin tutadi. Art-terapiya jarayonida rasm chizish, bo'yash, loy yoki plastilin bilan ishlash kabi ijodiy faoliyat turlari orqali bolalarning nutqni faolligi rag'batlantiriladi. Bu jarayonda bola nafaqat ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi, balki o'z fikrini nutq orqali ifodalashga ham undaladi.

To'rtinchi tamoyil – emotsional qulay yaratish tamoyili: dizartriya bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishda ijodiy psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Art-terapiya mashg'ulotlari bolalarda qiziqish uyg'otishi, ularning emotsional holatini yaxshilashi va nutqiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi kerak. Ijodiy emotsional muhit bolaning o'ziga ishonchini kuchaytiradi va nutqiy rivojlanishga ijodiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchi tamoyil – kompleks yondashuv tamoyili: dizartriya nutq buzilishi ko'pincha artikulyatsion motorika, nafas olish, ovoz hosil qilish hamda umumiy va mayda motorika bilan bog'liq muammolar bilan kechadi. Shu sababli korreksion ish jarayonida art-terapiya bilan bir qatorda artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari va motorikani rivojlantiruvchi faoliyatlar ham qo'llaniladi.

Oldinchi tamoyil – rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili: korreksion mashg'ulotlar nafaqat nutq nuqsonlarini bartaraf etishga, balki bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Art-terapiya orqali bolalarning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy qobiliyatlari va kommunikativ ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Yuqoridagi ta'lim tamoyillarini amalga oshirishda dizartriya bolalar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv materiallari va metodikalar ishlab chiqiladi. Bu dasturlar o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab sozlanadi. Bundan tashqari tarbiyaviy va psixologik ko'mak beriladi ya'ni bolalar bilan ishlashda ularning psixologik holati, hissiy va ijtimoiy

rivojlanishini ham e'tiborga olinadi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy va mehnat ko'nikmalari bunda dizartriyali bolalar uchun kasbga tayyorlash, o'zini tutish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish ustuvor vazifalardan sanaladi.

Mashg'ulotlar davomida muloqotni o'rnatish uchun asos sifatida bolalarning predmet-amaliy faoliyati, shuningdek ularning ta'limiy faoliyati xizmat qiladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni til vositalarining shakllanish darajasi, bolaning yoshi hamda uning yetakchi faoliyati (o'yin va ta'lim faoliyati)ni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni tarbiyalash hamda maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida, zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda tashkil etiladi.

**Xulosa.** Serebral falajli bolalarda nutq rivojlanishidagi qiyinchiliklar murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular nafaqat artikulyatsion apparat, balki umumiy motorika, nafas olish va emotsional-irodaviy soha bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli bunday bolalar bilan korreksion-logopedik ishlarni tashkil etishda kompleks, tizimli va individual yondashuv

talab etiladi. Art-terapiya vositalaridan foydalanish dizartriyali bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida samarali pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U bolalarda ijodiy faollikni kuchaytirish, emotsional barqarorlikni ta'minlash hamda muloqotga kirishish motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rasm chizish, modellashtirish va boshqa ijodiy faoliyat turlari nutqiy faollikni tabiiy ravishda faollashtiradi. Korreksion ish jarayonida ishlab chiqilgan tamoyillar – individual yondashuv, tizimlilik va izchillik, faoliyatga yo'naltirilganlik, emotsional qulay muhit, kompleks yondashuv hamda rivojlantiruvchi ta'lim – bolalarning nutqiy imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning nafaqat nutqiy, balki kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, art-terapiya elementlarini logopedik ish tizimiga integratsiya qilish serebral falajli bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi hamda ularning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Винарская Е. Н., Пулатов А.М. Дизартрия и ее топико - диагностическое значение в клинике очаговых поражений мозга. - 1989
2. Хрестоматия по логопедии Учебное пособие для студентов высших и средних специальных педагогических учебных заведений: Т/ I под. Ред. Л. С .Волковой и В. С, Селиверстова - М.: Гуманит. Изд. центр ВЛАДОС, 1997.
3. Логопедия: Учеб. для студ. дефектол. фак. пед. высш. учеб. заведений / Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003.
4. Коноваленко В .В ., Коноваленко С. В. Экспресс-обследование фонематического слуха и К 64 готовности к звуковому анализу у детей

дошкольного возраста. Пособие для логопедов. - М.: "Гном-Пресс", 2000. – 16 с., цветная вставка.

5. Ерошева, О. В. Арт-терапия как здоровьесберегающая технология в ДОУ / Молодой ученый. – 2023.
6. Kondratieva S.Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fazoviy va miqdoriy tasavvurlarini shakllantirish uchun o'yinlar // Maktabgacha pedagogika.-2006.-№1.35-49b.
7. Чиркиной.Г.В. Методы обследования речи детей 5-6 лет. Под ред. «АРКТИ», 2003.- Стр 321
8. Пузанова.Б.П. Коррекционная педагогика М. Академия. 2001г.

С